

XOLCHAYON YODGORLIK MAJMUASI

Kazakboyeva Parvina Alisher qizi*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti 3-kurs talabasi**Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi I. B. Xudoynazarov*

Annotatsiya: Ushbu maqola Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan qadimgi Kushonlar davlati manzilgohlaridan biri bo'lgan Xolchayon yodgorlik majmuasi xususidadir. Shuningdek, maqolada yodgorlikni tadqiq qilgan olimlar, manzilgohning madaniyatimizga qanchalik hissa qo'shganligi to'g'risida ham so'z ketadi.

Kalit so'zlar: Xolchayon, Denov, Kushon hukmdorlari, G. A. Pugachenkova, topilmalar, Yunon xudolari.

KHOLCHAYAN MEMORIAL COMPLEX

Kazakboyeva Parvina Alisher qizi*Tashkent state university of oriental studies**3-course student Faculty of Eastern civilization and philosophy**Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi I. B. Xudoynazarov*

Abstract: This article is about the Kholchayan monument complex, one of the settlements of the ancient Kushan state, located in the Denov district of the Surkhandarya region. The article also talks about the scientists who studied the monument and how much the settlement contributed to our culture.

Key words: Holchayon, Denov, Kushan rulers, G. A Pugachenkova, finds, Greek gods.

KIRISH:

O'zbekistonning janubiy viloyati bo'lmish Surxondaryo qa'rida juda ko'plab tarixiy maskanlar mujassam. Bu hududda qadimgi yirik davrlarlardan biri bo'lgan, ellin davlati Kushonlar saltanati hukmronlik qilgan. Bu davlatga tegishli ko'plab manzilgohlar mavjud bo'lib, ulardan Dalvarzintepa, Ayritom, Xolchayon, Fayoztepa va Qoratepalar misol bo'la oladi. Bularning barchasi ellinistik madaniyatning o'choqlaridir. Shu jumladan Xolchayon ham.

ASOSIY QISM

Qadimgi san'atning ilk na'munalaridan biri olis o'tmishda qadimgi Baqtriyaning bir qismi hisoblangan Surxondaryo viloyati Denov shahri yaqinidagi, Xolchayon shahridan topilgan loydan yasalgan haykallardir. 1959-yilning bahorida, Xolchayon jamoa xo'jaligining texnikani ta'mirlash joyini kengaytirish paytida bir tepalikda uchta tosh ustunlari aniqlangan va arxeologlarga xabar qilingan. 1960-yildan Sa'natshunoslik institutining akademigi, G.A. Pugachenkova rahbarligidagi ekspeditsiya Xolchayon tepaligini tekshira boshlaydi. Xolchayondagi qazuv ishlari jaroyonida Xonaqohtepa, Qorabog'tepa, Maslaxattepa kabi tepaliklar ochib o'rganildi. Akademik G.A. Pugachenkova Xolchayon nomli kitobida, miloddan avvalgi III-I asrlarda Chag'oniyon taraqqiy etgan, gullab yashnagan manzil ekanligi, Xolchayonda tangalar, uy joy buyumlari, xumdon va boshqa buyum jihozlari yuksak did bilan yasalganligini qayd etdi¹.

Xolchayondagi arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, O'zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston yerlarida sirli shaxs tasviri solingan Kushon tangalari keng tarqalgan. Xolchayon tangalarining yuz tomonida bir tomonga qarab

¹ Ртвеладзе Э.В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области Ахеменидского времени. – СА. 1975. 145-с.

turgan hukmdor tasviri bo'lib, ikkinchi tomonda esa Osiyo kiyimidagi qurollangan otliq podshohga g'alaba xudosi Nika tojini kiydirayotganligi aks ettirilgan. Tangada hukmdor " Geray Sanab- Kushon" degan so'zlar bitilib, Geray dastlabki Kushon hukmdori bo'lib, u Kudzulla Kadfizdan oldin yashagan. Uning zamonida kushonlar imperiyasi tarkib topmagan edi. Geray hokimyat tepasiga chiqqach, Kushonlar tangasini birinchi bo'lib zarb etdi. U o'zigacha bo'lgan grek makedoniyalik hukmdorga o'xshab Gretsiya (Yunon) madaniyatiga ko'r-ko'rona taqlid qilmadi. Aksincha, Osiyo va Yunon madaniyatini uyg'unlashtirdi. Xolchayon haykallarida Geraydan tashqari boshqa saroy ulamolari, chetdan kelgan elchilar, ot choptirib ketayotgan chavandozlar, sozandalar, mazharabozlar ham tasvirlangan. Mazkur haykallardagi o'xshashlik Xolchayon Gerayning yoki unga yaqin og'a inilarining turar joyi bo'lgan degan xulosaga olib keladi².

Xolchayon topilmalari Denov shahrining yoshini belgilashda noyob yodgorlik hisoblanadi. Shuningdek, arxeologik qazish ishlari natijasida Qizilsuv daryosi bilan bog'lanib ketgan 20 metrdan ko'proq jarlikda joylashgan Kallamino tepaligi pastki qatlamlarida Xolchayondan ham qadimiyroq asori atiqalar borligi fanga ma'lum bo'lmoqda.

Xolchayondan topilgan bir qator asoriatiqalar Kushonlar davrida Chag'oniyon moddiy madaniyati naqadar yuksalganligidan dalolat beradi. Bu joydagi tekshirishlar Baqtriya- Kushon zamonining binokorlik texnikasi to'g'risidagi ma'lum tasavvurni yanada kengaytirdi. Xolchayon saroyi arxetiktura jihatidan g'oyat muhimdir. Asosiy zalning uch devori 3 metr balandlikda oq ganch bilan suvalgan, undan yuqori qismlarda mahobatli haykallar joylashtirilgan. To'rtinchi devorning to'q qizil fonida oq ganchdan barg, gul, bir bosh uzum tasvirlanib naqsh solingan. Saroyning asosiy zalidan chiqiladigan ayvondagi naqshlarda erkaklar sur'ati ham bor. Erkaklardan biri baqtriyalikka yana biri mo'g'ulga o'xshaydi. Haykalni to'la tiklash mumkin bo'lmadi. Chunki uning mayda-mayda bo'laklarigina saqlanib qolgan. Haykallarning kattaligi

² Annayev T, Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent. 1997. 167-b.

odam bo'yining uchdan ikki qismiga to'g'ri keladi. U yerdan topilgan ayol haykali ham diqqatga sazavordir. Haykal tanasidan topilgan parchada haykal ustidagi halat yoki yopinchiq saqlagan: halat tagida to'q qizil rang ko'ylak, ustidan beldan yuqorida oq tasma bog'langan. Bu haykal tanasi, vaziyati, qo'llarining turishi, dubulg'a va halatiga qaraganda ma'buda Afina haykali bo'lsa kerak. Markaziy Osiyoga yunonlar ma'budasining qiyofasini makedoniyalik Aleksandr olib kelgan albatta. Xolchayon haykallari orasida Mitra Nika va boshqa ma'budalarining qiyofalariga yaqin qiyofali haykallar ham bor. Haykal parchalari orasida Xolchayon sozandalari haykallarini ham uchratish mumkin. Baqtriya-Kushon yodgorliklarining yuksak sa'natida ellin haykaltaroshligi bilan Parfiya san'ati an'analari ko'rinadi. Saroyning qabullar zali va ayvoni navqiron sulolaning harbiy g'alabalari va salobat mavqei, shuhratini yoyishib uning namoyondalarini ham Baqtriya yerlari uchun shavqatsiz janglarda ham ulug' zafarlar munosabati bilan o'tkazilgan bayramona qabullarda ko'rsatish uchun mo'ljallangan haykaltaroshlik naqshlari bilan bezatilgan edi³. O'zbekiston Davlat sa'nat muzeyida zal va ayvonni bezab turgan 32 ta haykaltaroshlik asari namoyishga qo'yilgan. Ularda saroyning haykaltaroshlik kompozitsiyasi personajlarining butun rang barangligi aks etgan. Hukmdor va uning turmush o'rtog'i, dushmanidan qo'lga kiritilgan harbiy o'lja, qurol- aslaha bilan muzaffar shahzoda, ma'budlar haykali, sulola homiylari, asirga olingan harbiylar, shuningdek bayramona bazm ishtirokchilari, Parfiya shahzodasi, saroy ayollari, musiqachilar va gul ko'tarib yuruvchi o'g'il bolalar aks etgan haykallar topilgan.

Xolchayon haykaltaroshligini ochish, o'rganish, tarixiy madaniy jihatdan sharhlash va materiallarni e'lon qilish xizmati G.A. Pugachenkovaga shuningdek, arxeologlar va restavratorlar jamoasiga tegishli bo'lib, ularning loydan yasalgan yuzlab nozik parchalarini topish va saqlab qolish bo'yicha og'ir mehnatini jasorat deyish mumkin. Ular tufayli olam loydan o'z ifosini topgan va Budda qonun qoidalarining qat'iy doiralari bilan cheklanmagan Kushon sa'natining ilk na'munalarini ko'rdi.

³ Аскарлов А.А. Степной компонент в оседлых комплексах Бактрии и вопросы его интерпретации \\\ Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. Алма-Ата: Наука. 1989. 201-с.

Xolchayon topilmalarining aynan shu xususiyati butun dunyoda mutaxassislarning haqiqiy qiziqishini tug'dirdi⁴.

Saroyning ichki naqshlarida Afina va Gerakl ham aks etgan. Qiyofasi bir qadar varvarlashtirilganiga qaramay, Yunon panteonining ushbu personajlarini tanib bo'ladi. Ammo, shuni yodda tutish kerakki, yunon ma'budlari va qahramonlarining ikonagrafiyasi mahalliy ma'budlarining qiyofasini aks ettirish uchun asta sekin moslashtirilgan edi. Masalan, zardushtiylik dini ma'budasi Rishto (Arshtat) tasvirlari keyinchalik, Kushon tangalarida uchraydi, lekin ikonagrafiya bo'yicha bu Afina. Kuchli Gerakl qiyofasida zardushtiylik dini ma'budlaridan biri Veretragnani ifodalash boshlangan. U yovuz kuchlarni yenggan botir va mardlik timsoli edi. Ma'lumki, ilmfan bir joyda turmaydi, xolchayonlik haykal sanasi va uni sharhlashga o'n yilliklar davomida ko'pgina tadqiqodchilar murojaat qilgan. Masalan, G.A. Pugachenkovaning hisoblashicha, geray tipidagi jangchilarning yengil qurollangan otliq qo'shini va qurolaslahaga o'ralgan, og'ir qurollangan otliqlar qo'shini o'rtasidagi jang sahnasi Kushon podsholigi asoschilari yuechjilarning mahalliy Baqtriya qo'shini bilan urushini ko'rsatib turibdi.

XULOSA:

Vatanimiz tarixida juda ham boy. Unda ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud. Ammo Surxondaryo viloyati qadimiyligi bilan ajralib turadi. G'arbning eng qadimgi, boy madaniyati aynan ushbu viloyat orqali kirib kelgan. Xolchayon manzilgohi ham shular jumlasidandir. Unda qadimgi ellinistik madaniyat rivojlangan. Afsuski, topilmalarning ko'pchiligini tiklash iloji bo'lmagan. Ammo olimlar tomonidan bu maskanni o'rganish to'xtatilgani yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Annayev T, Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent. 1997. 167-b.

⁴ Пугаченкова Г. А. Скульптура Халчаёна. - Ташкент. 1966. 45-с.

Аскарлов А.А. Степной компонент в оседлых комплексах Бактрии и вопросы его интерпретации \ \ Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. Алма-Ата: Наука. 1989. 201-с.

Пугаченкова Г. А. Скульптура Халчаёна. - Ташкент. 1966. 45-с.

Ртвеладзе Э. В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области Ахеменидского времени. – СА. 1975. 145-с.